

YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINING YASHIL IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li

TDIU Marketing kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: jaloladdinxorazmiy@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezisda yashil marketingning yashil iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari asosida tahlil qilingan. Mavzuga oid nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalar umumlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda samarali marketing strategiyalarini qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil marketing, raqamli iqtisodiyot, iste'molchi xulq-atvori, marketing strategiyasi.

Аннотация

В данном тезис проанализировано влияние «зелёного маркетинга» на развитие зелёной экономики на основе научных трудов отечественных и зарубежных учёных. Обобщены теоретические подходы и практический опыт по данной теме, раскрыты их взаимосвязи. Кроме того, разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по применению эффективных маркетинговых стратегий в развитии зелёной экономики.

Ключевые слова: зелёная экономика, зелёный маркетинг, цифровая экономика, поведение потребителей, маркетинговая стратегия.

Abstract

This thesis examines the impact of green marketing on the development of the green economy, drawing on the scientific studies of both domestic and foreign scholars. Theoretical approaches and practical experiences related to the topic are summarized, and their interconnections are highlighted. Furthermore, scientifically grounded proposals and recommendations have been developed on the application of effective marketing strategies in fostering the green economy.

Keywords: green economy, green marketing, digital economy, consumer behavior, marketing strategy.

XXI asrda global miqyosda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, resurslardan ortiqcha foydalanish hamda sanoatning ekologik xavfsizlikka ta'siri insoniyatni barqaror rivojlanish g'oyalarini yanada chuqurroq o'rganishga undamoqda. Shu jarayonda "yashil iqtisodiyot" tushunchasi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim konsepsiyalaridan biri sifatida shakllanib, nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki ijtimoiy farovonlikni oshirish va iqtisodiy samaradorlikni mustahkamlashning asosiy vositasi sifatida tahlil qilinmoqda. Yashil iqtisodiyotning asosini tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash kabi ustuvor yo'nalishlar yotadi.

Mazkur jarayonlarda marketing faoliyati o'ziga xos o'rin tutadi. An'anaviy marketing asosan iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa, yashil marketing ekologik xavfsiz, tabiiy resurslarga nisbatan tejamkor, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish hamda targ'ib qilish orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki jamiyatning ijtimoiy va ekologik manfaatlarini ham inobatga oladi. Bu esa korxonalar uchun yangi raqobat ustunliklarini yaratish, iste'molchilar bilan uzoq muddatli ishonchli munosabatlarni yo'lga qo'yish va korporativ ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish imkonini beradi.

Yashil marketing strategiyalarining dolzarbligi shundan iboratki, ular bugungi kunda nafaqat milliy iqtisodiyot barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda, balki, xalqaro integratsiya jarayonlarida ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki ekologik talablar tobora kuchayib borayotgan sharoitda ishlab chiqarish va iste'molning "yashil" modeliga o'tish, global bozorda ishtirok etishning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois yashil marketing konsepsiyasini chuqur tadqiq etish, uning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, yashil iqtisodiyot rivojida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlash ilmiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Yashil iqtisodiyot va yashil marketing masalalari jahon miqyosida keng qamrovli ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlarning markazida turibdi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan strategik hujjatlar va dasturlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan. Mazkur hujjatlarda resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishiga moslashuv, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Nazariy jihatdan yashil marketing konsepsiyasining shakllanishiga F.Kotler, J.Ottman, M.Polonskiy kabi olimlarning tadqiqotlari muhim hissa qo'shgan. Ularning ilmiy qarashlarida yashil marketing strategiyasining asosiy elementlari - mahsulot siyosati, narx belgilash, taqsimot kanallari va kommunikatsiya faoliyatini ekologik tamoyillar asosida tashkil etishning zarurligi asoslab berilgan. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish, ekologik samaradorlikni oshirish va yashil texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, milliy iqtisodiyotning tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar qatorida marketing yondashuvlari ham alohida o'rin tutmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil marketing strategiyalarini joriy etish korxonalar uchun nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki korporativ ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish mahsulot va xizmatlarning ekologik sifati hamda raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishda energiya va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, shuningdek, iste'molchilar ongida ekologik qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy amaliyotda esa ushbu jarayon hali boshlang'ich bosqichda bo'lib, korxonalar tomonidan yashil marketing strategiyalarini to'laqonli tatbiq etish mexanizmlari yetarlicha shakllanmagan. Shu sababli, ilmiy asoslangan marketing yondashuvlarini ishlab chiqish, normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, korxonalarda ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish va iste'molchilarda ekologik ongni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yashil marketing strategiyalari yashil iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ularni milliy amaliyotda keng tatbiq etish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro bozor talablariga moslashish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son
2. World Economic and Social Survey 2011: The Great Green Technological Transformation / Department of Economic and Social Affairs of the United Nations Secretariat (DESA). — New York: United Nations, 2011. E/2011/50/Rev. 1ST/ESA/333.
3. Порфирьев Б.П «Зеленая» экономики :реалии перспективы и пределы роста .-М.;Карнеги,,2013
4. Навстречу “зеленой” экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011.
5. Greening the Global Economy. Hardcover- November 13, 2015.